

“BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.

RUBUS CAESIUS L. NAVLARINING SUV ALMASHINUV XUSUSIYATLARI

Jumakulova Noila Shokirovna doktorant

Kabulova Flora Djabbarovna professor

*Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti. Samarqand viloyati,
Samarqand shahri, Biokimyo instituti, universiteti xiyoboni 15 uy.*

Tel: (90) 743-80-69 E-mail: jumakulovanoila1@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada *rubus caesius* L. (maymunjon)ning Djambo, Tornfri, Karaka black, Brazos, Brzezina, Cacansca bestrna, Chester navlarining suv almashinuv xususiyatlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar. *Rubus caesius* L., maymunjon, nav, suv almashinuv xususiyatlari, suv saqlash qobiliyati.

Аннотация. В статье приведены сведения об особенностях водообмена *Rubus caesius* L. (ежевика) сортов Джамбо, Торнфри, Карака черная, Бразос, Бжезина, Cacansca bestrna, Честер.

Ключевые слова. *Rubus caesius* L., ежевика, сорт, характеристики водного обмена, водозапасающая способность.

Annotation. This article provides information on water exchange characteristics of *Rubus caesius* L. (blackberry) varieties Djambo, Thornfree, Karaka black, Brazos, Brzezina, Cacansca bestrna, Chester.

Keywords. *Rubus caesius* L., blackberry, variety, water exchange characteristics, water storage capacity.

Mamlakatimizda ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish, shahar va tumanlarda ekologik ahvolni yaxshilash, “Yashil makon” umummilliy loyihasini amalga oshirish borasida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida har yil kamida 200 million tup daraxt ekish rejalashtirilgan. “Yashil makon” umummilliy loyihasi tashabbuslariga mos tarzda respublikaning 10 ta hududida aerobiologik monitoring tizimini yo'lga qo'yish ko'zda tutilmoqda.

Ekologik omillarining o'zgarishi ko'pchilik o'simliklarda suv miqdorining o'zgarishiga olib keladi. Suv taqchil sharoitda esa o'simlik barglari va to'qimalarida suvning miqdori keskin kamayadi [2].

Respublikamiz qishloq xo'jaligi asosan sug'orma dehqonchilikka asoslanganligini hisobga olsak, qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirish va hosilning miqdori muayyan hududni, aniqroq aytganda, o'simliklarni vegetatsiyasi davomida yetarli darajada suv bilan ta'minlashga bog'liqligi namoyon bo'ladi.

Keyingi yillarda olimlar tomonidan o'simliklarning noqulay tuproq-iqlim sharoitlari va turli xil stress omillar ta'siriga chidamliligini oshirish maqsadida ularda kechadigan morfofiziologik vabiokimyoviy jarayonlarni tadqiq qilishga bo'lgan talab

“BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.

ortib bormoqda [3,4].

O‘simliklardan yuqori va sifatli hosilini olish uchun avvalambor biologik xususiyatlarini chuqur o‘rganish orqali yetishtirishning zamonaviy agrotexnologiyalarni ishlab chiqarishga tadbiiq qilish zarur. Shu boisdan ham, bizning ilmiy tadqiqotlarimiz biologik talablar asosida Samarqand viloyati tuproq-iqlim sharoitida maymunjonning Djambo, Tornfri, Karaka black, Brazos, Brzezina, Cacansca Bestrna, Chester, navlarini yetishtirish jarayonida ularning fiziologik xususiyatlari o‘rganilib, aholi uchun noan‘anaviy o‘simlik bo‘lgan tikonsiz maymunjon (*Rubus caesius* L.) navlarining suv almashinuv xususiyatlarini tadqiq qilish maqsad qilingan. Shu maqsadda tikansiz maymunjon navlari “Adilov Rashid Agro Meva” fermer xo‘jaligida ekib o‘stirilmogda [1].

O‘simliklarning suv bilan ta‘minlanishini o‘rganish natijasida maymunjon navlarining ko‘pchiligi uchun rezavorlar pishishining turli bosqichlarida olib berildi. Suv miqdori va suv tanqisligi ko‘rsatkichlari iyun (2021-2023 yil) avgust oyida (2021-2023 yil) aniqlandi. Tahlil qilish uchun barglar joriy yildagi novdalarining o‘rta qismidan olingan. Statistik ma‘lumotlarni qayta ishlash “Dala eksperimenti metodologiyasi” bo‘yicha maxsus kompyuter Exel dasturi yordamida amalga oshirildi (1-jadval).

1-jadval.

Suv miqdori va suv tanqisligi ko‘rsatkichlari (umumiy suv miqdoriga nisbatan % hisobida)

Navlar nomi	2021		2022		2023	
	suv miqdori	suv tanqisligi	suv miqdori	suv tanqisligi	suv miqdori	suv tanqisligi
Tik o'suvchi navlar						
Brazos	57,6	15,8	59,1	11,2	58,9	11,9
Brzezina	56,8	15,4	45,9	13,4	45,8	13,6
Cacansca bestrna	56,8	17,2	43,4	14,5	43,2	15,6
Chester	57,5	17,4	48,5	12,8	47,5	14,2
Sudralib o'suvchi navlar						
Karaka black	55,3	14,5	59,2	23,8	57,2	24,2
Yarim yotib o'suvchi navlar						
Djambo	58,4	17,4	56,4	9,7	57,4	11,8
Tornfri	55,7	27,1	59,3	10,9	58,3	12,6

“BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.

Maymunjon navlari barglarining suv saqlash qobiliyati o‘rganilganda bir muncha farqlar kuzatildi. Jumladan, maymunjon navlari barglarida suv saqlash qobiliyati o‘rtacha qiymati mavsum davomida o‘zgarib turishi aniqlandi

Maymunjon navlarining jami suv saqlash qobiliyati bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Djambo 58.4 % (2021-yil), Tornfre 59.3 % (2022-yil), Brazos 58.9 % (2023-yil) navlarida kuzatildi. Ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha eng past qiymat maymunjonning Karaka black (55.3 %), Cacansca Bestrna (43.4 %) navlarida kuzatildi

O‘tkazilgan ilmiy tadqiqot ishlari bo‘yicha quyidagi xulosaga kelindi: Turli morfologik shaklga ega bo‘lgan maymunjon navlarining suv miqdori va suv tanqisligi bir-biridan farqli ravishda o‘simlikning tashqi muhitda turli xil shaklda moshlashishiga asos bo‘ladi.

Shunday qilib, o‘tkazilgan tadqiqot natijalari maymunjon o‘simligining fiziologik va biologik xususiyatlari va navdorlik farqlari asosida ushbu ekinni Samarqand viloyati tuproq-iqlim sharoitida ekish va yetishtirish mumkinligi samarali natijalarga erishish mumkinligidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Жумакулова Н.Ш, Кабулова Ф.Дж., Хужанов А.Н. Самарқанд вилояти шароитида тикансиз маймунжоннинг морфофизиологик хусусиятлари Academic research in educational sciences 2021 Vol 2 Issue № 9. pp. 818-825
2. Грюнер Л.А., Кулешова О.В. Зимостойкость ежевики в условиях Орловской области при использовании зимнего укрытия и ретарданта ТУР // Современное садоводство –Contemporary horticulture. 2017. № 2. С. 1-9. DOI: 10.24411/2218-5275-2017-00020
3. Семенова Л.Г., Добренков Е.А. Адаптационный потенциал ежевики в условиях западного предгорья Северного Кавказа. Майкоп : Эдви, 2001. 73с.
4. Косаковская И.В. Физиолого-биохимические основы адаптации растений на стрессы// – Киев, 2003. С.-192.